



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

«Tasdiqlayman»
Filologiya fakulteti dekani,
_____D.S.Qulmamatov
_____avgust 2007-yil

NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI

f.f.n. N.YO'LDOSHEVNING nemis filologiyasi bo'limi
bakalavr bosqichi 3-kurs talabalari uchun

Chet el adabiyoti
fanidan tayyorlagan

ISHCHI O'QUV DASTURI

Ro'yxat raqami:
Ta'lim sohasi: Nemis filologiyasi
Ta'lim yo'nalishi: Nemis tili

Termiz

A N N O T A S I Y A

Mazkur dastur nemis filologiyasi yo`nalishi bo`yicha bakalavr o`quv rejasida keltirilgan fanlardan biri bo`lgan «Chet el adabiyoti» kursi bo`yicha tuzilgan bo`lib, talabalarga jahon adabiyotining antik davri, o`rta asrlar adabiyoti, uyg`onish davri estetikasi va jahon adabiyoti, XVII-XVIII asrlar adabiyoti, XIX-XX asrlar adabiyoti davrlarini nafaqat adabiy tarixiy nuqtai nazardan, balki adabiy-nazariy, falsafiy, psixologik va estetik nuqtai nazardan o`rganishda yordam beradi.

Tuzuvchi:	f.f.n. N.Yo`ldoshev
Taqrizchilar:	f.f.n. B.Murtazayev dots.N.Panjiyev

Termiz davlat universiteti o`quv-metodik kengashining 2007-yil ____ -
avgustdagi
1-sonli qaydnomasi bilan qayd etilgan

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Nemis filologiyasi kafedrası

f.f.n. NORMAT YO`LDOSHEVning nemis tili
bo`limi bakalavr bosqichi 3-kurs talabalari uchun

CHET EL ADABIYOTI
fani bo`yicha

ISHCHI O`QUV DASTURI

(Ishchi dastur Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti
O`zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy Kengashi tavsiyasiga binoan O`zMU
ilmiy-metodik kengashi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur
asosida tuzildi)

Ma'ruza- soat
Amaliy mashg`ulot- soat
Seminar- soat

Tuzuvchi: f.f.n. N.Yo`ldoshev

Ishchi dastur 2007 yil ____ kuni kafedra
yig`ilishida muhokama qilinib tavsiya etilgan

Kafedra mudiri: Sh.Kenjaboev

Termiz

KIRISH

Mazkur ishchi o`quv fan dasturi «Chet el adabiyoti tarixi» kursi bo`yicha tuzilgan bo`lib talabalarga jahon adabiyotshunosligi an'analariga tayangan holda a) jahon adabiyotining antik davri; b) o`rta asrlar adabiyoti; g) XVII-XVIII asrlar adabiyoti d) XIX asr adabiyoti; e) XX asr adabiyoti davrlari bo`yicha keng ma'lumot beradi.

Tasnif etilgan davrlar nafaqat adabiy-tarixiy nuqtai nazaridan, balki adabiy-nazariy, falsafiy, psixologik va estetik nuqtai nazardan ham o`rganiladi.

Qadim Yunon, Rim va Ovro`poda yuzaga kelgan muhim adabiy hodisalar Sharq xalqlari adabiyoti Bilan muqoyasa qilinadi.

Mazkur dastur o`zbek va xorijiy filologiya yo`nalishidagi bakalavr bosqichi talablariga mo`ljallangan.

Ma'ruza mashg`ulotlari mazmuni

Kirish

Bundan 2700-2800 yillar ilgari Yunoniston (Gretsiya)da yozma badiiy ijodning dastlabki namunalari yuzaga kela boshladi. Rim madaniyatining yuksalishida Gretsiya adabiyotining yuksak o`rni bor. Er yuzidagi ana shu ikki qadimiy xalq yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot antik madaniyat, antik adabiyot deb ataladi. Lotin tilidagi «antik» (antiguus) so`zining ma'nosi «qadimgi» demakdir. Lekin bu atamaning Yunon Rim adabiyotlargagina tatbiq etilishi unchalik to`g`ri emas, chunki madaniyatning asl beshigi Sharq mamlakatlari bo`lgan; dastlabki adabiy madaniyatining asl beshigi Sharq mamlakatlari bo`lgan; dastlabki adabiy yodgorliklar oldin Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil (Vaviloniya), qolaversa, Markaziy Osiyo kabi mamlakatlarda yaratilgan. Biroq Yunon adabiyoti hech bir xalqning adabiyotiga suyanmasdan mustaqil ravishda paydo bo`lgan adabiyot ekanligini hech qachon rad etmasligimiz kerak. Ana shu nuqtai nazardan qaralganda mazkur kursdan talabalarga chuqur bilim va ko`nikma berish oldimizda turgan asosiy vazifadir va uning dasturi keng va mukammallik baxsh etadi.

Dasturning metodik jihatdan o`ziga xosligi va metodologik tizimi quyidagilarda namoyon bo`lishini e'tirof etamiz:

1. Jahon adabiyotshunosligi an'nalariga tayangan holda «Chet el adabiyoti tarixi» shunday tarkibiy qismlarga ajratiladi; a) jahon adabiyotining antik davri; b) o`rta asrlar adabiyoti; v) uyg`onish davri estetikasi va jahon adabiyoti; g) XVII-XVIII asrlar adabiyoti; d) XIX asr adabiyoti; e) XX asr adabiyoti.

2. Tasnif etilgan davrlar nafaqat adabiy-tarixiy nuqtai-nazardan, balki adabiy-nazariy, falsafiy, psixologik va estetik nuqtai nazardan ham o`rganiladi.

3. Qadimgi Yunon, Rim va Ovro`poda yuzaga kelgan muhim adabiy hodisalar Sharq xalqlari adabiyoti bilan muqoyasa qilinadi.

4. Har bir adabiy-tarixiy davr so`ngida adabiy hamda ilmiy manbalar, savol va topshiriqlar tavsiya etiladi.

5. «Chet el adabiyoti tarixi» kursi o`zbek va xorijiy filologiyasi yo`nalishidagi bakalavr bosqichi talablariga mo`ljallangan.

Mif va jahon adabiyoti.

Mifning jahon adabiyoti tarixidagi o`rni, mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotining o`rganishdagi adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida.

Antik adabiyot.

Qadimgi Yunon qabilalarining vujudga kelishi. Yunon folklori. Mehnat va marosim qo`shiqlari. Dehqonchilik qo`shiqlari. To`y va ziyofatlarda aytiladigan qo`shiqlar. Ertaklar, maqol va atamalar. Matallarning topishmoqlardan iboratligi, Yunon xalqining anchagina boy va rang-barang og`zaki adabiyoti bo`lganligidan dalolatdir. Mif va afsonalar. Tragediya. Komediya. Nasr.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

Qadimgi adabiy yodgorliklar sifatida Xomerning «Iliada», «Odissey» dostonlarini ko`rsatish mumkin. Har ikki dostonning mavzusi Troya afsonalaridan ya'ni yunonlar bilan troyaliklar o`rtasida bo`lib o`tgan urush rivoyatlaridan olingan.

VII-VI asrlarda Yunon adabiyoti.

Eramizgacha bo`lgan VII-VI asrlarda Yunon jamiyati va madaniyati. Yunon hayotida ruy bergan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar natijasi o`laroq adabiy janr sifatida lirikaning paydo bo`lishi. Yamb va elegiya. Eligik lirikaning vazni ham, mazmuni ham epik dostonlarga yaqin turadi. Yamb hazil – mutoyibani, tanqidiy fikrlarni ifoda etuvchi she'riy asar. Epigrammalar.

V-VI asrlar adabiyoti

Bu davr Yunon tarixi voqealariga boy, turli jabhalar, jumladan, ilmu-fan, san'at rivojlantirildi. Drama-dramaning barcha turlari: fojea, komediya va satirik dramasi yuzaga keldi. Yunon teatrining paydo bo'lishi va uning xususiyatlari. Esxil jahon adabiyotida san'atlar gultoji – tragediyaning otasi sifatida tanildi. «Zanjirband Prometiy» tragediyasi.

Sofokl o'zining durdona asarlarini mardlik va rostgo'ylik bilan: «Gomerning noz ne'matlarga boy, to'kin-sochin dasturxonidan to'kilib qolgan ushshoqlar, xolos» degan edi. «Shoh Edip» tragediyasi. Evripid qadimgi Yunon tragediyasining uchinchi

vakili sanaladi. «Medeya», «Alkestida», «Ippolit», «Ifigeniya Avlidada», «Gerakl».

Yunon komediyasi

Komediya tragediyaga nisbatan keyinroq rivojlangan janr. Yunon komediyasi qadimgi, o'rta va yangi davr komediyalariga bo'linib. qadimgi davr komediyasiga nisbatan ertaroq etib kelgan. Yangi davr komediyasi. Menandr, Aristofan komediyalari. «Tinchlik», «Lisistrata», «Bulutlar», «Qurbaqalar», «Boylik» komediyalari.

V-VI asrlar proza adabiyoti

Tarixiy prozaning birinchi vakili Gerodot bo'lib, Eron. Yunon urushi voqealariga bag'ishlangan «Tarix» asarini yaratdi. Gerodot asarini jahon tarixi darajasiga olib chiqdi. «To'maris» ritorikaning asl vatani sitsiliya bo'lib, V asrda adabiy janr holida sofistlar yaratganlar.

Ellinizm davri yunon adabiyoti

Ellin xalqining fani, adabiyoti. San'ati va ularning boshqa mamlakatlarga ta'siri. Ellinizm davri adabiyotida yangi komediya rivojlandi. «Hakam sudi», «Qirqilgan soch» komediyalari. Ellinizm davrida poeziya janri ham kamol topdi. «Idilliyalar», «Bukolikalar». Bu davrda yunon xalqining jahon adabiyotiga qo'shgan boyligi roman janri bo'ldi. Longning «Dafnis va Xloya» romani.

Rim adabiyoti

Rimliklar yunonlar ma'naviy merosini o'zlarining milliy ehtiyojlariga, g'oyaviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib, qabul qilganlar va taraqqiy ettirganlar. Rim adabiyoti keyinchalik, Ovro'po adabiyotiga katta ta'sir qildi. Plavt. «Xumcha», «Maqtanchoq jangchi» komediyalari.

Avgust asri adabiyoti

Davrning eng katta ijtimoiy va madaniy ahvoli. Oktavian Avgustning san'at va adabiyot homiysi timsoliga aylanib ketishi.

Oktavian Avgust rahbarlik faoliyati davrida tarixda Rim adabiyotining «Oltin davr» nomi bilan atalishi. Vergileyning «Bukolikalar», «Georgikalar» va «Eneida» dostoni. Gesiodning «Mehnat va kunlar» asarining ta'siri.

O`rta asrlar adabiyoti

O`rta asr adabiyotining rivojlanish jarayonida xalq poeziyasi an'analarining roli katta ekanligi. «Eneida» poemasi. Ritsar roman va qissalarning vujudga kelishi. Frantsuz qahramonligi eposi, «Roland haqida qo`shiq». Ispan xalqining qahramonlik eposi. «Sid haqida qo`shiq». Nemis qahramonlik eposi, «Nebulunglar haqida qo`shiq» qahramonlik eposining «Alpomish» dostoni o`rtasidagi o`xshashliklari.

XII-XIII asrlarda Ritsarlik-Kurtuaz adabiyoti

XII-XIII asrlarga kelib, salb yurishlari. Shaharlar mavqeining o`lishi davrida ritsarlik madaniyatining rivojlanishi. Ritsar adabiyoti. O`rta asrlarda Frantsiyada paydo bo`lgan ritsar adabiyoti uchun namuna xizmatini o`tadi. Ritsarlar poeziyasi. Trubadurlar. Minnezanglar paydo bo`lishi. Ritsar romanlari ichida Frantsiyada birinchi bo`lib «Tristan va Izolda» paydo bo`ldi. Bu adabiyotning keng tarqalgan janri - fablio - kichik realistik hikoyadir. Uyg`onish davriga o`tish. Davrning muhim xususiyatlari. Inson shaxsini ulug`lash. Tabiat va jamiyatni inson manfaatlariga bo`ysundirish harakati. Antik madaniyatga munosabat masalasi. O`tmish merosiga qiziqish, uyg`onish davrining yirik gumanistlarining tenglik va adolat uchun kurash g`oyalari. Ovro`po - Uyg`onish davrining ilk vatani. Dante ijodi. Shekspir ijodi.

Italiya uyg`onish davri adabiyoti

XIII asrda O`rta asrning so`nggi va yangi zamonning birinchi shoiri - Dante ijodi. «Ilohiy komediya». Petrarka, Jovanni Bokkachcho ijodlari. «Dekameron» asari. Bu davrni nemislar reformatsiya, frantsuzlar rensseans, italiyanlar esa chinkvichento (500 yillar, ya'ni XVI asr degan ma'noni bildiradi) deb atashgan.

Frantsiya uyg`onish davri adabiyoti

XV-XVI asrlarda Frantsiyadagi ijtimoiy-siyosiy holat Fransua Rable ijodi uyg`onish davrining ilk mahsuli bo`ldi. «Gargantyua va Pantagryuel» romani o`rta asr tartiblari, xulq-atvorlariga qarshi satira sifatidagi asar bo`lib, unda xayoliy bo`lsa-da, xalqning kelajakdagi yaxshi turmushi aks ettirilgan.

Angliyada uyg`onish davri adabiyoti

XIV-XVI asrlarda Angliyada uygʻonish davri harakatlari, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, oʻrta asr tartiblari va uning gʻoyalari putur etkazuvchi yangi gumanistik dunyoqarash shakllandi. Din va cherkovga munosabat keskin oʻzgardi. Tomas Mor oʻzining «Utopiya» asarida bu holatni uygʻonish davri maʼrifatchilik adabiyotiga asos solishi bilan bu xarakterdagi tomoshalarini xalqqa taqdim qildi. Vilyam Shekspir ijodi: «Romeo va Juletta», «Gamlet», «Otello», «Gʻirol Lir», «Makbet» tragediyalari.

Ispaniyada uygʻonish davri adabiyoti

Ispaniyada gumanistik dunyoqarashning shakllana borishi bilan jamiyatga va uning urf-odatlariga qarshi kurashning kuchayishi. Ispan adabiyoti va romanchilik. Migel De Servantesning «Don Kixot» romani. «Don Kixot» romani oʻrta asr ritsar romanlariga parodiya tariqasida yozilgan boʻlsa ham mazmuni keng, oʻsha jamiyat va uning urf-odatlari fosh qilingan. Asarda yozuvchi harbiy sanʼatning haqiqiy maqsadi - tinchlik ekanini uqtiradi.

XVII asr ispan adabiyoti

XVII asr Ispan adabiyotidagi uch yoʻnalish. Ispan adabiyotida Barokko oqimining rivojlanishi. Lope De Vega «Qoʻzibuloq», «Raqs muallifi», «Aslzoda idish yuvuvchi xotin» kabi sahna asarlarida insonni eski urf-odatlardan holi etib, uni ulugʻlash muammolari. Kalderonning diniy ruhdagi pesalari. «Butga sajda qilish», «Hayot-uyqu demak». Kalderonning or-nomus masalasiga bagʻishlangan dramalari («Ayriliqning xavfi», «Nomus gʻalabasi», «Maxfiy nikoh»).

XVII asr klassitsizm adabiyoti

Tarixiy vaziyat va adabiy oqimlar, klassitsizmning asosiy tamoyillari. Ingliz adabiyoti. Jon Melton «Yoʻqotilgan jannat», «Topilgan jannat» poemalarida siyosiy voqealarning taʼsirlanishi hamda inqilobiy gʻoyalardan chekinishining aks ettirilishi. «Samson - kurashi» drammatik asarida inqilobiy gʻoyalarga murojaat qilinishi.

XVII asr Frantsuz adabiyoti

XVII asr Frantsuz adabiyoti va sanʼatida klassitsizm. Per Kornelning «Sid» tragediyasi. Moler «Don Juan», «Mizantrop» pesalarida siyosiy kuchlarni tanqid qilish, axloqsizlikni qoralash. «Hasis», «Dvoryanlikdagi meshchan» komediyalarida xasislikni aristokratiya xayotiga taqlid qiluvchi kishilarni tanqid qilish. Lafonten «Pashsha bilan chumoli», «Dub va qamish», «Maymunlar sudida tulkiga shikoyat bilan chiquvchi boʻri» kabi masallarida magʻrurlik, tekinxoʻrlik, adolatsiz sudni tanqid ostida oladi. Jan Rasin «Britannik»,

«Fedra», «Andromaxa» sahna asarlarida saroydagi ahloqiy tushkunligini fosh qiladi. Bualoning «Poeziya san'ati» asari.

XVIII asr ma'rifatchilik adabiyoti

Ma'rifatchilik adabiyotining xususiyati. Uning oldiga qo'yilgan asosiy masalalar. Yangi ijtimoiy hayot shakllarini o'zlashtirish va bu shakllarning kishiga ta'siri bilan bog'liq davrning xarakterli va yorqin adabiy hodisasi ma'rifatchilik realizmidir. XVIII asr ma'rifatchilik oqimi ko'pgina Ovro'po mamlakatlarining ijtimoiy hayotida katta burilish bo'ldi.

Ingliz va nemis ma'rifatchilik adabiyoti

Daniel Defo, o'z zamonasining ilg'or ziyolilaridan biri bo'lgan Defo ajoyib publitsist. Talantli jurnalist sifatida shuhrat topdi. «Kambag'allar to'g'risida», «Ingliz xalqining avvalgi qudrati haqida», «Legion nomidan murojaat» kabi asarlarida ingliz konstitutsiyasiga munosabatini ko'rsatgan. Robinzon Kruzo obrazida insonga xos bo'lgan tabiatni va jamiyatni o'zgartiruvchi mehnat nafasini bera olishi. Jonatan Svift «Gulliverning sayohatlari» romani inson va jamiyat xarakteri haqidadir. Fridrix Shiller-atoqli nemis dramaturgi. Uning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» dramalari. Nemis adibi Iogann Volfgang Gyotening «Faust» asari. Uning lirikasi va poetik ijodining cho'qqisi - «Mag'ribu mashriq» devoni.

XIX asr romantizm va realizm davri adabiyoti

XIX asrning tanqidiy realist yozuvchilari voqelikni kengroq, chuqurroq aks ettirishda romantiklar to'plami to'plangan ijodiy tajribaga suyandilar. Romantizm adabiyotining barkamol xarakterlar yaratish, hayot ziddiyatlarini yirik kontrast obrazlar to'qnashuvida ko'rsatib berish kabi xususiyatlar yirik yozuvchilar realizmining shakllanishiga o'z hissasini aka-uka Grimmilar ijodi qo'shdi. Goffman ijodidagi o'ziga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodidan foydalanib yozilgan bolalar adabiyoti namunalari diqqatga sazovordir. «Tungi hikoyalar», «Serapian muridlari», «Sinnober laqabli miti Sahes» ertagi, «Mushuk Murning xotiralari» romani. Bayron ijodida Angliya zulmiga qarshi olib borilgan kurashlar tasviri. «Chayld-Garoldning ziyoratlari», «Sharq dostonlari» asarlarida shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan munosabati ko'rsatilgan. Valter Skott ijodi: «Qirolicha Mab», «Islom qo'zg'oloni», «Ozod qilingan Prometey» Viktor Gyugo ijodi: «Xo'rlanganlar»,

«Dengiz zahmatkashlari» romani. Fenimor Kuper ijodi: «Monikenlar», «Ovchi», «Izquvar», «So`nggi Mogikan», «Chingachguk - ulkan Ilon» va boshqa romanlari.

XIX asrning boshlarida Napoleon yurishlarining Germaniya iqtisodiyotiga, madaniyatga, adabiyoga ta'siri. Davr shoiri Xenrix Xeyne asarlarida ozodlik g'oyalarining ifodachisi sifatida. Uning asarlari: «Qo'shiqlar kitobi», «Yo'l manzalari» she'riy va ocherklar to'plamlari, «Sileziya to'quvchilari», «Germaniya qish ertagi» va boshqalar.

XIX asr tanqidiy realizm adabiyoti

Frantsuz adabiyotida XIX asrning birinchi yaramida inqilobiy poeziya rivojlandi va bu adabiyot mehnatkash xalq ommasining kayfiyatini aks ettirdi. Xalq shoiri Per Jan Beranje siyosiy jihatdan nihoyatda o'tkir qo'shiqlarni yaratdi. Shuning uchun ham shoir «Xalq - mening ilhomim» degan edi. Frederik Stendal ijodi. «Qizil va qora», «Parma ibodatxonasi» romanlari. Onore De Balzak ijodi. Uning «Insonlar komediyasi» degan umumiy nom ostiga kiruvchi romanlari. «Evgeniya Grande», «Gorio ota», «Sag'ri teri tilsimi», «Gobsek» romanlari. Prosper Merime novellalari: «Tamango», «Metoe Falkone», «Etrus guldoni», «Ikki yoqlama xato». Flober ijodi. «Bovare xonim», «Salambo», «Sezgilar tarbiyasi», «Avliyo Antoniyning aldanishi» kabi romanlari. Charlz Dikens: «Oliver Twistning boshidan kechirganlari», «Dombi va uning o'g'li» romanlari.

XX asr adabiyoti

Parij Kommunisidan birinchi jahon urushining tugashigacha bo'lgan davrda Frantsuz adabiyoti. Tanqidiy realizm. Dekadentlik adabiyoti. I.Zolya «Hamal» romani. Gi De Mopassan ijodi. «Hayot», «Azizim» romanlari va novellalari. Nemis adibi Tomas Mann ijodida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi. «Buddenbroklar» romanida oila xronikasi. Ingliz adibi Bernard Shou ijodi. «Urush haqida sog'lom fikr» asari. AQSh adabiyoti. Mark Tven ijodi. «Shoh va gado» romani. Jek London hikoyalari. «Martin Iden», «Uch qalb» romanlari. R.Rollan ijodi: «Jan Kristof», «Maftun qalb» romanlari. Ernest Xemenguey ijodi: «Alvido qurol», «Chol va dengiz» romanlari. T.Drayzer: «Baxti qaro Kerri», «Amerika fojeasi», «Jenni Gerxard» romanlari. Frantsuz adabiyoti: Lui Aragon qarshilik davri poeziyasi. Nemis adabiyoti. Anna Zegers: «Ettinchi xoch», «Barhayot o'liklar», «Tinchlik» asarlari. Ingliz realizmi. Jeyms Oldrij «Dengiz shunqori» romani.

XX asr jahon adabiyotida relizm va modernizm adabiyoti

Frantsuz realizm adabiyoti va ekzistentsializmi. A.Aragon, J.P.Sartr, A.Kamyu, A.Adomov ijodi. 50-yillar ispan adabiyotida «Tremendizim» yo`nalishi. «Ispan yangi romanchiligi» yangi estetikaning bir ko`rinishi sifatida (X.Goytsoyu, A.Matute v.b.). Ingliz modern adabiyotida «ishchi» mavzui. Realiz metodi. Jek London, Sten Barstou, D.Selendjer va boshqalar.

Yapon adabiyotida buddizm va samuraylik an'analari. Ikoben san'ati, dzyu-do, sumo san'at turlari. Klassitsizm va yapon adabiyoti. Base ijodi. Sakaku novellalari. Takomatsu dramaturgiyasi va maishiy drama. K.Abe, S.Nakamura, Akutagava ijodiyoti.

XX asr Lotin Amerikasi adiblari ijodi milliy ozodlik mavzusi: Pablo Neruda, Gabriel Markes ijodiyoti.

Osiyo va Afrika mamlakatlari adabiyoti

Osiyodagi eng yirik - arab, fors (Eron), xitoy kabi mamlakatlardagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish. Madaniyat, san'at, adabiyot. Arab adabiyotida Qur'oni Karimning beqiyos o`rni va uning badiiy adabiyotga ijobiy ta'siri. Abdurahmon al-Homisiy, Jurji Zaydon - arab yozuvchilari.

Fors jahon adabiyotida Abulqosim Firdavsiyning tutgan o`rni. Tasavvuf ilmi. Umar Hayyom, Hofiz Sheroziy. Sa'diy va o`zbek adabiyoti.

Hind mumtoz adabiyoti. «Ramayana», «Kalila va Dimna», «Mahobhorat» kabi eposlar. Robindranat Tagor va o`zbek adabiyoti.

Qadimiy Xitoy adabiyoti va falsafasi. Konfutsiyning ilmiy salohiyati. Romantizm va realizm. Lu Sin - realizm asoschisi.

Afrika adabiyoti

Shimolimy (Jazoir mamlakati, Anri Alleg, Muhammad Dib romanlari), Janubiy (Piter Abraxamsning «Chaqmoqli yo`llar», «Qabrdagi gulchambar» romanlari, Jeyms Nagugi ijodi: (G`arbiy Senegal davlati). Semben Usmonning «Garmsel», «Senegal o`g`li» romanlari Afrika adabiyoti o`zlikni anglash, demokratiyaga intilish, o`z haq-huquqini anglab olishga bo`lgan harakat mavzui ustuvor yo`nalishni tashkil etadi.

«Chet el adabiyoti tarixi» kursi bo`yicha joriy nazorat ishi uchun savolnoma

1. Mifologiya nima? Mifologiyaning mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?

2. Yunon qahramonlik eposi bilan turkiy xalqlarning yaratgan qahramonlik eposlari o`rtasidagi o`xshashliklar nimalardan iborat?
3. Xomerning dostonlari bilan «Alpomish» o`rtasidagi o`xshashliklar nimada ko`rinadi?
4. Shoiri Sapfo lirikasining xalq qo`shiqlariga yaqinligi qanday izohlanadi.
5. Qadimgi Yunonistonda dramaning kelib chiqishi va turlari.
6. Esxilning tragediyalarida mifologik obrazlar orqali davrning ijtimoiy hodisalari qanday ko`rsatilgan?
7. Safokl tragediyalarining asl mohiyati nimadan iborat?
8. Yunon komediyasining o`ziga xos xususiyatlari va Aristofan qanday mavzularda asarlar yaratdi?
9. Ellin davri poeziyasining rivojlanishi va bukolikalarning paydo bo`lishi?
10. Rim adabiyotining paydo bo`lishida Yunon adabiyotining ta'siri nimada ko`rinadi?
11. Avgust asri adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
12. O`rta asrlar adabiyotining rivojlanishida xalq ijodiyotining roli qanday kechgan?
13. Qahramonlik eposining xalqchilligi nimada?
14. Ritsarlik romanlarida fantastikaning salmog`i qanday?
15. Fablio va shvanklar haqida gapiring?
16. Dantening «Ilohiy komediya» asaridagi realistik holatlar haqida so`zlang?
17. Bokachchoning «Dekameron» asarining Uyg`onish davri adabiyoti tarixidagi ahamiyati nimada?
18. Shekspir komediyalari va tragediyalarining mavzusi haqida so`zlang?
19. Klassitsizmning asosiy (tamoyillari) printsiplari nima?
20. Barokko qanday oqim va uning vakillari kimlar?
21. Lope de Vega ning «Qo`zibuloq» asarining konflikti nimada?
22. Molerning «Xarakterlar komediyasi» deb nomlangan asari qaysi?
23. Lafonten masallaridagi xalqchillik nimada?
24. Ma'rifatchilik adabiyotining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
25. Defoning asarlarida xalqqa munosabati qanday?
26. Defoning pedagogik qarashlari qanday?
27. Sviftning satirik sifatida tanilishiga nima sabab bo`lgan?
28. Sviftning ijodiy uslubi (metodi) haqida gapiring?

29. Volterning klassitsizm va realizmga munosabati qanday?
30. Russoning pedagogik qarashlari qanday?
31. Shiller asarlaridagi isyonkorlik ruhni qanday izohlaysiz?
32. Gyote asarlarining xalqchilligi nimada ko`rinadi?
33. «Faust» asarining falsafiy xususiyatlari nimada?
34. Romantizm oqimining o`ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
35. Bayron ijodida milliy ozodlik kurashi qanday yoritilgan?
36. Bayron ijodidagi Sharq mavzusi haqida gapiring?
37. Gyugo ijodida xalq obrazi qanday aks ettirilgan?
38. Xeyne-ozodlik uchun kurashuvchi deganda nimalarni ko`zda tutasiz?
39. Balzak ijodida shaxs masalasi qanday yoritilgan?
40. P. Merime va folklor haqida so`zlang?
41. Dikkinsning satirik asarlarida xalq obrazi qanday aks etirilgan?
42. E. Zolya va naturalizm adabiy oqimi haqida gapiring?
43. Zolyaning «Hamal» romanida mehnat va kapital o`rtasidagi qarama-qarshilik nimadan iborat?
44. Mopassan hikoyalarida psixologik tahlilining chuqurligi nimalarda ko`rinadi?
45. Xemengueyning urush, tinchlik inson haqidagi tushunchalarining o`ziga xosligi nimadan iborat?
46. Shoh dramaturgiyasida ijobiy qahramon masalasi qanday yoritilgan?
47. Mark Tven ijodida ahloq tasviri qanday ifodalangan?
48. Jek London hikoyalarida tabiat, jamiyat va shaxs masalasi qanday yoritilgan?
49. Romen Rollan ijodida milliy inqilobiy mavzuning ochilishi qanday kechgan?
50. Anna Zekrs ijodida xalq hayoti va kurashi qanday aks ettirilgan?
51. Modernizm deganda nimani tushunasiz?
52. Modern adabiyoti haqida so`zlang?
53. XX asr frantsuz ekzistentsializmi haqida nimalarni bilasiz?
54. A. Kamyuning «Begona», «Vabo» asarlarida qanday g`oya ilgari surilgan?
55. U. Folner ijodida XX asr realizmi qanday aks etgan?
56. Yapon adabiyotidagi samuraylik an'analarini aks etishi haqida gapiring?
57. Yapon adabiyotida buddizm va konfutsiy ta'limotining obro`sizlanishiga sabab nima?
58. XX asr Yapon romanchiligi haqida so`zlang?

59. G. Markesning «Oshkora qotillik qissasi»da milliy va umuminsoniy g'oyalar talqini qanday berilgan?
60. Misr yozuvchisi Abdurahmon al-Xomisiy hikoyalari haqida gapiring?
61. Jo`rji Zaydonning «Farg`ona kelini» hamda A. Qodiriyning «O`tgan kunlar» asarlari o`rtasida o`xshash tomonlar haqida so`zlang?
62. R. Txakur (Tagor) ning hikoyalari haqida gapiring?
63. Cho`lpon Tagor haqida nimalar degan?
64. Lu Sin' asarlarida xalq obrazi qanday aks ettirilgan?
65. Muhammad Dib (Jazoir)ning «Jazoir qissalari» hamda «Katta xonadon» romanlarida qanday g`oya ilgari surilgan?
66. Jeyms Ngugi (JAR)ning «Bolakay nidosi» romanida aks etgan ijtimoiy davr haqida gapiring?
67. La Guma Aleks (JAR) ning «Inson va tun», «Tong yaqin» qissalarida inson hayotini manzaralari qanday aks ettirilgan?
68. Samben Usmon (Senegal) ning «Senegal o`g`li» romanida inson psixologiyasi qanday yoritilgan?

«Chet el adabiyoti tarixi» kursidan mustaqil ish mavzulari

1. Antik jamiyat-insoniyat rivojlanishining alohida bosqichi sifatida.
2. Antik davr dramaturgiyasida Mifning o`rni.
3. Antik dunyo bilan O`rta Osiyo o`rtasidagi madaniy aloqalar.
4. Xomer dostonlarida aks ettirilgan jamiyat taraqqiyotining bosqichlari.
5. Gesiod-dedaktik epos yaratuvchisi.
6. Qadim yunon lirikasining poetik xususiyatlari.
7. Yunon lirikasining turlari: vazn va janrlar. Gekzametrlar va Sharq she'r vaznlari.
8. V asr Yunon elining oltin davri.
9. Esxil-jahon tragediyanavisligining otasi.
10. Aristofon-yunon komediyasining boshlovchisi.
11. Yangi attika komediyasida Menandrning o`rni.
12. Ovro`po adabiyotida Rim adabiyotining o`rni.
13. Rim adabiyotining «Oltin davri».
14. «Roland haqida qo`shiq»da vatanparvarlik mavzusi.
15. «Nibelunglar haqida qo`shiq» va «Alpomish» xalq eposlaridagi o`xshashlik.
16. O`rta asr ritsar she'riyatida ishq talqini.
17. Ritsarlik adabiyoti va Sharq falsafasidagi mushtaraklik.
18. G`arb va Sharq uyg`onishining mushtarak va farqli jihatlari.

19. Dante va Sharq adabiyoti.
20. «Dekameron»da Sharq epik shoirlariga xos qoliplash usuli.
21. Fransua Rable va uning «Gargantuya va Pantagryuel» asarida satira.
22. Shekspir tragediyalarida gumanizm talqini.
23. «Don Kixot» romanidagi fojeaviylik.
24. «Topilgan Jannat» da inqilobiy g`oyalardan chekinishi.
25. XVIII asr Ispan adabiyotidagi uch yo`nalish.
26. Moler-Frantsuz milliy teatrining asoschisi.
27. «Robinzon Kruzo» romanida tabiat va jamiyatni o`zgartiruvchi mehnat nafasini ulug`lash.
28. Svift satirik yozuvchi va shoir sifatida.
29. Jan Jak Russo asarlarida ijtimoiy tengsizlikning ko`rsatilishi.
30. Bomarshe dramaturgiyasining realistik yo`nalishi va estetik qarashlari.
31. Nemis ma'rifatchilik adabiyotida «Bo`ron va tazyiq» adabiy harakatining o`rni.
32. Shillerning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» asarlarining g`oyaviy mazmuni, realizmning kuchi.
33. «Mag`ribu-mashriq devoni»-Gyote lirikasi va poetik ijodining cho`qqisi.
34. Sentamentalizm va Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» asari.
35. Nemis romantizmi adabiyotida Ertak janrini rivoji.
36. Bayron she'riyatida Sharq motivlari.
37. V. Gyugo ijodida milliy-ozodlik harakati mavzusi.
38. F.Kuper ijodida indeys qabilalari hayotining aks ettirilishi.
39. Xenrix Xeyne ozodlik g`oyalarini ifodachisi.
40. Stendal ijtimoiy roman ustusi.
41. Prosmer Merime novellalar ustusi.
42. Balzak-ijtimoiy fanlar doktori.
43. Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil.
44. Tomas Mann ijodida insonparvarlik g`oyalarining aks etishi.
45. Bernard Shou ijodida iejtimoiy muammolar.
46. «Shoh va gado» da xalq muammosi.
47. «Shimol hikoyalari», «Janub hikoyalari», tabiat, jamiyat va shaxs muammosi.
48. «Jan Kristor»da san'at va san'atkor mavzusi.
49. «Chol va dengiz» asarida tabiat va jamiyat bilan kurashda inson irodasi.

50. Lui Aragon ijodida frantsuz xalqi qahramonona an'alarini kuylanishi.
51. Jeyms Oldrij ijodida grek xalqining milliy ozodlik uchun kurash mavzusi.
52. A.Kamyu ijodi va frantsuz ekzistentsializmi.
53. «Ispan yangi romanchiligi» yangi estetikasi bir ko`rinishi sifatida.
54. Ingliz modern adabiyoti.
55. U. Stoyron, R. Emkson, D. Selendjerlar ijodida Amerika yoshlari fojiasi.
56. Klassitsizm va Yapon adabiyoti.
57. XX asr Yapon romanchiligi va Yasunari Kavabata ijodi.
58. «Tanholikning yuz yili» va «Oshkora qotillik» qissasi asarlarida milliy va umuminsoniy g`oyalar talqini.
59. Hozir zamon arab adabiyoti.
60. Dunyoviy lirika-Umar Hayyom, Hofiz Sheroziy va Sa'diy ijodi.
61. Tagor-romannavis.
62. Lu Sin asarlarida xalq obrazi.
63. Shimoliy Afrika adabiyoti va arab madaniyati.
64. Jeyms Ngugining «Bolakay nidosi» romanida shaxs va jamiyat muammosi.
65. G`arbiy Afrika adabiyotida Senegal adabiyotining o`rni.
66. Jahon modernizmi va o`zbek adabiyoti.
67. Jahon adabiyotida o`zbek adabiyotini o`rni.
68. Sharq va G`arb adabiy aloqalari.
69. Sharq adabiyotini jahon adabiyotiga ta'siri.
70. Jahon adabiyotidagi etakchi adabiy janrlar.
71. Xalqaro Nobel mukofoti va jahon adabiyoti durdonalari.

**«Chet el adabiyoti tarixi» kursi bo`yicha foydalanilgan adabiyotlar
Asosiy adabiyotlar**

1. Alimuhammedov A. «Antik adabiyot tarixi», T., «O`qituvchi», 1975 yil.
2. Antichnaya literatura. Rim. Antologiya. M., Vo`sshaya shkola, 1988 g.
3. Sulaymonova F. «Sharq va G`arb», T., «O`zbekiston» 1997 yil.
4. Kun N.A. «Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari» T., 1983 yil.
5. Mahmudov Mahkam «Hayrat va tafakkur» T., G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990 yil.
6. Rim adabiyoti bo`yicha xrestomatiya. Oybek tahriri ostida. T., 1940 y.
7. Sofokl «Shoh Edip», T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979 yil.

- 8.Xomer «Iliada», T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988 yil.
- 9.Esxil. «Zanjirband Prometey», T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978 yil.
- 10.Meletinskiy E.M. Poetika mifa M., 1976 g.
- 11.Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar) T.: O`qituvchi, 1987.
- 12.Aleseev M.P. i dr. Istoriya zarubejnoj literaturi (srednie veka i vozrojdeniya)-M.: Visshaya shkola, 1987.
- 13.Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (V-XVII asrlar) T.: O`qituvchi, 1979.
- 14.Istoriya zarubejnoj lituraturi XX v. -M.: Nauka, 2000.
- 15.Artamanov S.D. Istoriya zarubejnoj literatura XVII-XVIII v.v.-M.: Prosvesheniya, 1978.

Qo`shimcha adabiyotlar

- 1.Andayk Dj. «Kentavr», «Moskva», 1979 yil.
- 2.Ilyosov Ya. «So`g`diyona», T., «Sharq», 1994 yil.
- 3.«Maxabxarata» T. «Yosh gvardiya» 1966 yil.
- «Mif diffuziyasi va epik motivlar» «O`zbek tili va adabiyoti», 1994 yil №3.
- 4.Sagdullaev A. «Ognenno`e strelo`» T., «Universitet», 1993 yil.
- 5.«Ellada qahramonlari»T., «Yosh gvardiya», 1976.
- 6.«Jahon adabiyoti» jurnal. T.,
- 7.«Tafakkur» jurnal T.,
- 8.«O`zbekiston san'ati va adabiyoti». Gazeta
- 9.«O`zbek tili va adabiyoti» jurnal

O`rta asrlar va uyg`onish davri adabiyoti

Asosiy adabiyotlar

- 1.Istoriya zarubejnoj literaturo`: Sred. Veka, Vozrojdaninya. M., Vo`sshaya shkola, 1978 g.
- 2.Sulaymonova F. «Sharq va G`arb» T., «O`zbekiston», 1997 yil.
- 3.Sulaymonova F. «Shekspir O`zbekistonda», «Fan», T., 1978 y.
- 4.Teorix, shkolo`, kontseptsii. M., Nauka, 1977 g.
- 5.Qayumov O. «Chet el adabiyoti» (Ilk o`rta asrlar, Uyg`onish davri va
- 6.XU11 asr G`arbiy Ovro`po adabiyoti) inkkinchi nashri. «O`qituvchi» nashriyoti, T., 1979 yil.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Nurmatov O`. Shiller tragediyalari o`zbek tilida. Sharq yulduzi, 1985. 1-son.
2. Boqieva M. Bayron ijodiga Sharq adabiyotining ta'siri va tarjima masalasi. Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar to'plami, №606, T., 1979.
3. Olenova. Sovremennaya Amerikanskaya novella, M., 1984.
4. Bertels E.E. Ocherki istorii persidskoy literaturo`. M., 1978.
5. Komilov M. Ibn Sino, Dante. T., 1983.
6. Aristotel. Poetika 1980.
7. Aligeri Dante «Ilohiy komediya» T., «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1975 yil.
8. Bokkachcho Jovanni «Dekameron». T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978 y.
9. Goldoni Karlo «Mehmonxona bekasi», T., O`zdavnashr. 1935 y. (Lotin grafikasi).
10. Pesn o Rolande. Perevod de la Barta. M., 1958 g.
11. Rable F. «Gragantuyua va Pantagryuel» T., «Yosh gvardiya», 1970 y.
12. Servantes Savedra de Migel. «Lamanchlik Idalgo uddaburo don Kixot sarguzashtlari» T., «Yosh gvardiya» 1969 y.
13. Shekspir Vilyam. «Pesalar», «Gamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Yuliy Sezar» «Romeo Juletta» T., O`zadabiynashr, 1960 yil.
14. Shekspir Vilyam «Sonetlar», T., «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1978 yil.
15. Shekspir Vilyam «Qiyiq qizning quyulishi» T., «Toshkent» 1965 yil.

XVII-XVIII asr G`arbiy Ovro`po adabiyoti

Asosiy adabiyotlar:

1. Azizov Q., Qayumov O. «Chet El adabiyoti tarixi» (XVIII-XX asrlar) T., «O`qituvchi», 1987 yil.
2. Qayumov O. «Chet El adabiyoti tarixi» (Ilk O`rta asrlar, Uyg`onish davri va XVIII asr G`arbiy Ovro`po adabiyoti). Ikkinchi nashri, «O`qituvchi» nashriyoti, T., 1979 yil.
3. Artamov S.D. Istoriya zarubnjnoy literaturo` XVII-XVIII vv. –M., Prosvesheniya. 1978 g.
4. Geroi, shkolo`, kontseptsii -M., Nauka 1977 g.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Anikst A.A. «Daniel Dero», M., 1957 g.
2. Dubashinskiy I.A. «Puteshevstviya Gulleverom». Romantika Svifta, M., «Vo`sshaya shkola», 1969 y.
3. Muravev V.S. «Puteshestvie s Gulliverom» M., «Kniga».
- Nurmatov O`. «Shiller tragediyalari o`zbek tilida», «sharq yulduzi», 1985 y. №1
4. Urnov D.M. Robinzon i Gulliver, Sudba dvux literaturno`x geroev. M., 1973 g.
5. Urnov D.M. «Defo», «Molodaya gvardiya», 1978 g.
- Byorns Robert. «Qo`shiq va balladalar». T., «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1971 y.
6. Gyote Iogann Volfgang «Yosh Verterning iztiroblari», T., Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1975 y.
7. Gyote Iogann Volfgang «Faust» T., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972-1974 y.
8. Defo Daniel «Dengiz sayoyhi Robinzon Kruzoning hayoti va ajib sarguzashtlari» T., «Yosh gvardiya», 1965 y.
9. Lope de Vega «Qo`zibuloq» T., Samarqand. 1933 y. (lotin grafikasi)
- Svift Jonatan «Guliverning sayohatlari» T., «Yosh gvardiya» 1974 y.
- Shiller Fridrix. «Makr va muhabbat» T., Nafis adabiyot davlat nashr., 1939 y. (lot. grafikasi)
10. K. Krikvud. Renessans v Yaponii M., 1988 g.

XIX asr romantizm va realizm davri adabiyoti

Asosiy adabiyotlar:

1. Azizov Q., Qayumov O., «Chet El adabiyoti tarixi» (XVIII-XX asrlar) T., «O`qituvchi», 1987 y.
2. Baqoeva M. Bayronning «Ko`nglim qop-qorong`u» she'ri tarjimalari haqida. Maqolalar to`plami, «Tarjima nazariyasi maqolalari» №540. T., 1977 y.
3. Baqoeva M. Bayron ijodiga Sharq adabiyotining ta'siri va tarjima masalasi. Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar to`plami, №606, T., 1979 yil.
4. Maxmudov M. «Xayrat va tafakkur», G`.G`lom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990 y.
5. Po`latov Yu. O`zbekistonda chet El adabiyotini o`rganishga doir. «O`qituvchi» 1975 y.
6. Po`latov Yu. Asrlarga tutash hamkorlik. T., 1974 y.

- 7.Sulaymonova F. Sharq va G`rb.T., 1997 y.
- 8.Zarubejnaya leteratura XIX v. M., Prosvehenie, 1979 g.

Qo`shimcha adabiyotlar:

- 1.Bayron Jorj Gordon. «Saylanma». She'rlar, doston, dramatik doston. T., «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1974 y.
- 2.Balzak Onore de. «Gobsek. Sag`ri teri tilsimi», T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981 y.
- 3.Balzak Onore de. «Evgeniya Grande» T., 1964 y.
- 4.Balzak Onore de. «Gorio ota» T., Badiiy adabiy nashr. 1968 y.
- Vern Jyul. «O`n besh yoshli kapitan», T., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976 y.
- 5.Gyugo Viktor. «Byug Jargal», T., «Yosh gvardiya», 1982 y.
- 6.Gyugo Viktor «Dengiz zahmatkashlari», T., «Yosh gvardiya», 1965 y.
- 7.Dikkens Charlz «Oliver Tvsitning boshidan kechirganlari», T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984 y.
- 8.Merime Proper «Karl IX saltanatining yilnomasi» T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978 y.
- 9.Merime Prosper «Karmen», Novella. T., «O`zadabiynashr» 1963 y.
- 10.Merime Prosper «Tamango» Novellalar. T., O`zadabiynashr. 1961 y.
- 11.Stendal «Vanina Vanini yoki karboniylarning Papa oblatida fosh qilgan so`nggi ventasi haqidagi ba'zi tafsilotlar». T., O`zadabiynashr, 1962 y.
- 12.Stendal «Qizil va qora» 1930 yil xronikasi. T., Adabiyot va sanat nashriyati, 1979 y.
- 13.Stendal «Parma ibodatxonasi». T. «Meditcina» 1990 yil.
- 14.Flobar Gyustav «Borvari xonim», Viloyatlar axloqi haqida roman.T., Adabiyot va san'at nashr., 1976 y.
- 15.Xeyne Xenrix «Lirika». G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. T., 1973 y.
- 16.Xeyne Xenrix. «Germaniya. Qish ertagi». T., «Yosh gvardiya». T., 1994 y.

XX asr adabiyoti

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Azizov Q., Qayumov O. «Chet El adabiyoti» tarixi. (XU111-XX asrlar) T., «O`qituvchi», 1987 y.
- 2.Po`latov Yu. Asrlarga tutash hamkorlik. T., 1974 y.

3. Po'latov Yu. O'zbekistonda chet El adabiyotini o'rganishga doir. T., «O'qituvchi», 1975 y.
4. Latinskaya Amerika. Literaturno'y almanax. M., 1986 g.
5. Lirika Vostoka M., 1986 g.
6. Istoriya zarubejnoj literaturo` XX v. M., Nauka. 2000 g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Djuzuppe Matsuiki Estetika i kritika. M., 1976 g.
2. Mindeson «Amerikanskaya tragediya». T., Drayzera. M., 1981.
3. Afanasev A.N. Derevo jizni. M., 1982 g.
4. Kuchborskaya Z.P. «Realizm Zolya» M., 1993 g.
5. Finkelshteyn I.A. «Xeminguey», M., 1984 y.
6. Barbyus Anri. «Birinchi muhabbat» novellarlar. T., O'zadabiynashr, 1964 y.
7. Barbyus Anri «Hayot», T., O'zdavnar, 1941 y.
8. Drazer Geodor «Amerika fojeasi» 1-2 qism, T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 y.
9. Drayzer Geodor. Eski joylar. Hikoya. T., Samarqand O'zdavnashr, 1933 y. (lotin gravikasi).
10. Zolya Emil «Hamal». T., Adabiyot Adabiyot va san'at nashriyoti 1982 y.
11. London Jek. «Martin Iden». T., Badiiy adabiy nashr. 1968 y.
- Mopassan Gi de. «Hayot», «Azizim» Novellalar T., Adabiyot va san'at nashr. 1987 y.
12. Mann Genrix. «Soddiq fuqaro», T., «Adabiyot va san'at nashriyoti» 1970 y.
13. Oldrij Jeyms. «Dengiz shunqori» T., «Yosh gvardiya» 1977 y.
14. Uelss Gerbert «Ko`rinmas odam» T., Badiiy adabiy nashr. 1967 y.
15. Xeminguey Ernist «Quyosh baribir chiqaveradi» T., «Yosh gvardiya», 1984 y.
16. Xeminguey Ernest. «Alvido qurol». G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. T., 1973 y.
17. Xeminguey Ernest «Chol va dengiz», T., O'zadabiynashr 1963 y.
18. Gi de Mopassan. «Hayot», «Azizim». T., 1975 y.
19. Tomas Mann. «Buddenbroklar». T., 1973 y.
20. Ramen Rolan. «Jan Kristof» T., 1976 y.
21. Kamyu Albert. «Begona», «Vabo». T., 1996 y.
22. Markes Gabriel. «Tanholikning yuz tili», «Oshkora qotillik qissasi» T., 1990 y.

23. Jo`rji Zaydon. «Farg`ona kelini» . T., «Sharq». 2004 y.
24. Txakur Robindranat. «Donishmand Roja». T., «Sharq» 2005 y.
25. Lu Sin «Qadrdon qishlog`im» T., G`.G`ulom nom. Adabiyot va san'at nashr. 1991 y.
26. Muhammad Dib. «Jazoir qissasi», «Katta xonadon». T., 1992 y.
27. Semben Usmon. «Senegal o`g`li» T., «O`zbeiston» nashr. 1997 y.

Nemis filologiyasi kafedrası katta o`qıtuvchısı f.f.n.
N.Yo`ldoshevning «Chet el adabiyoti» fani bo`yicha tuzilgan ma'ruza
matniga

T A Q R I Z

Jahon adabiyotini o`rganish filolog talabalar uchun nihoyatda zarurdir. Ma'ruza matnida antik adabiyot, qadimgi yunon, rim adabiyoti, eramizning birinchi asridan boshlab, to XIII-XV asrlargacha bo`lgan adabiy hayot; XVII asrdan XIX asrning oxirigacha bo`lgan davrda yaratilgan jahon adabiyoti namunalarini o`zida nomlagan. Shuningdek, XX asr zamonaviy G`arb adabiyoti, Sharq adabiyoti, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlari adabiyotlari ma'ruza matnida qamrab olingan. Ma'ruza matnidan talabalar uchun muhim uslubiy qo`llanma sifatida foydalanish mumkin.

Taqrizchi:

f.f.n. B.Murtazoev

Nemis filologiyasi kafedrası katta o`qituvchisi f.f.n.
N.Yo`ldoshevning «Chet el adabiyoti» fani bo`yicha tuzilgan ma'ruza
matniga

T A Q R I Z

Jahon adabiyotini o`rganish xorijiy filolog talabalar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ushbu ma'ruza matnidán foydalanish talabalarni Sharq, G`arb, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlari adabiyoti bilan ma'lum darajada tanishtirish uchun imkon yaratadi. Ma'ruza matnida antik adabiyot, o`rta asrlar adabiyoti namoyandalarining hayoti, ijodi to`g`risida muxtasar ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, ma'ruza matnida XX asr jahon modern adabiyotining buyuk ijodkorlari haqida ham tushunchalar berilgan. Shu jihatlari bilan ushbu ma'ruza matni ahamiyatlidir.

Taqrizchi:

dots. N.Panjiev

Annotatsiya

Ma'ruza matnida antik adabiyotdan klasitsizm, uygʻonish davri, XX asr modern adabiyotiga qadar boʻlgan ma'lumotlar qamrab olingan.

Rezyume

Tekst leksii po zdrukbesko'y literature oxvato'vaet materio'lo' antichno'y, epoxi vozroledeniya i mozernichno'y literatura XX v.

Summary

The lecture on Foreign Literature contents materials on classical epoch of renaissance and modern literature of the XX century.

